



TIL VA NUTQ HODISALARINING O'RGANILISHI O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDAGI TADQIQI

Rajabova Irodaxon Shokir qizi

Axborot texnologiyalari va menejment
universiteti 1-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15036872>

Annotatsiya

Til va nutq bir-biriga bog'liq hodisalardir. Til nutq uchun moddiy material, bu material asosida nutq tashkil topadi. Tildagi hamma narsa til jamoasi uchun umumiy bo'ladi. Tilda ruhiy va moddiy material mavjud bo'lib, so'zning kishilar xotirasidagi obrazli ruhiy material, nutq yaratilish jarayonida qo'llaniladigan so'z shakllari, morfemalar, tovushlar moddiy material hisoblanadi. Tilning ruhiy hodisa ekanligi uning ongda saqlanishi bo'lsa, moddiy hodisaligi undagi til vositalari orqali belgilanadi.

Kalit so'zlar: til, nutq, o'zbek tili, tafakkur, Sistema, faoliyat, lison, jamiyat.

Аннотация


Язык и речь-взаимосвязанные явления. Язык является материальным материалом для речи, на основе этого материала формируется речь. Все в языке будет общим для языкового сообщества. Язык содержит духовный и материальный материал, образный духовный материал в памяти людей слова, словоформы, морфемы, звуки, используемые в процессе создания речи, являются материальным материалом. В то время как язык-это психическое явление, его сохранение в сознании, материальная феноменальность определяется средствами языка в нем.

Ключевые слова: язык, речь, узбекский язык, мышление, система, деятельность, язык, общество.

Annotation

Language and speech are interrelated phenomena. Language is the material material for speech, and speech is formed on the basis of this material. Everything in the language will be shared by the language community. Language contains spiritual and material material, figurative spiritual material in people's memory, words, word forms, morphemes, sounds used in the process of creating speech are material material. While language is a mental phenomenon, its preservation in consciousness, material phenomenality is determined by the means of language in it.

Keywords: language, speech, Uzbek language, thinking, system, activity, language, society.





Til va nutq masalasi nafaqat sistem tilshunoslikning, umuman, jahon tilshunosligi fanining hamma davrlaridagi, ham diaxron, ham sinxron bosqichlaridagi eng jiddiy nazariy muammosi bo'lgan va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi. Chunki, tilshunoslikning ushbu o'ta murakkab va o'ta dolzarb muammosisiz nafaqat nazariy-umumiy tilshunoslikning, balki xususiy-amaliy tilshunoslikning ham qator eng muhim, asosiy masalalarini to'liq, mukammal va obyektiv hal qilib bo'lmaydi. Shunga ko'ra til va nutq, dialektikasi jahon tilshunosligi fanining doimiy muammolaridan biri sifatida qolaveradi. F. De Sossyur tomonidan xalqning aloqa qilish, fikr ifodalash vositasining til va nutq deb berilishi, bularning bir-biridan farqlanishi olimlar o'rtasida fikrlar qarama-qarshiligini tug'dirdi. Bir kator olimlar til va nutq o'zaro farqlanmaydi, aslida farqlanmaydigan bitta obyekt mavjuddir, til va nutq bir narsa, desa, boshqa bir qator olimlar til va nutqni farqlash albatta, kerak bular farqlanadi, degan fikrlarni bildirishgan. Xullas, hozirda til va nutqni, til va nutq, hodisalarini, birliklarini farqlash umumtilshunoslikda, shuningdek, o'zbek tilshunosligida ham mustahkam o'rin egalladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Til va nutq, dialektikasida til o'ziga xos murakkab tuzilishga (strukturaga) ega bo'lgan bir butun sistema sifatida faoliyat ko'rsatadi. Demak, F.de Sossyur mutlaqo to'g'ri ta'kidlaganidek, til sistemadir. Til sistemasining bir-biri bilan uzviy bog'langan tovush tomoni, lug'at tarkibi, grammatik ko'rilishi mavjud bo'lib, ular birgalikda bir butunlikni, sistemani tashkil etadi. Tilning sistem xarakteri aslida qayd etilgan satrlar, qatlamlar (yaruslar) bilan belgilanadi, asoslanadi. Ayni vaqtda ushbu satrlarning har biri o'ziga xos sistema-ichki sistema bo'lib, til sistemasining tarkibiga kiradi. Demak, til sistemalar sistemasi-supersistema, makrosistema sifatida jamiyatga xizmat qiladi, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'ladi, ijtimoiy - amaliy vazifa bajaradi.

Alisher Navoiy til va nutqni o'zaro biri ikkinchisiz bo'lolmaydigan hodisalar sifatida talqin qiladi.[1] Til nutq uchun ashyodir, imkoniyatdir, nutq esa voqelikdir, ya'ni nutq til materiali asosida tashkil topishini uqtiradi. Buni quyida isbotini ko'rish mumkin. Til – shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir. Agar nutq nomaqul bo'lib chiqsa tilning ofatidir. Yugnakiy ham bu masalada juda o'rinli fikrlarni qoldirgan. U ham tildan maqsadli foydalanish haqida fikr bildirib, tildagi bor so'zni o'ylab-o'ylamay tilga chiqarish zarar ekanligini uqtirib buni quyidagicha izohlaydi.

“Tiling bakta tutg'il , tishing sinmasun,
Qoli chiqsa bakta tishingni siyur.





Sonip soʻzlagan er soʻzi soʻz sogʻi,
Oʻkush yangshagan tiley olmas yogʻi”[2:27].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Alisher Navoiy imkoniyat tarzidagi soʻz (til birligi) soʻzlovchi tomonidan turli xil jilvalantirilishi (nutq birligi sifatida reallashtirilishi) mumkinligini aytadi.

Uning tushunishicha, til ijtimoiy hodisadir. Til insonni hayvondan ajratib turadigan “gavhari sharif”dir. U maʼnoni birlamchi, shaklni ikkilamchi deb hisoblaydi, maʼnoga “soʻzning joni” deb baho beradi.

Til va nutq masalasi oʻzbek tilshunosligida Sh.Rahmatullayev, A.Hojiyev, A.Nurmonov, H.Neʼmatov, O.Bozorov[3] kabi olimlarning ishlarida keng va atroflicha tahlil qilingan.

A.Nurmonov lingvistik belgi tahliliga bagʻishlangan ishida til va nutq birliklari masalasi haqida ham fikr yuritib, tilshunoslikdagi nazariy qarashlarni umumlashtiradi hamda til belgisi va til birliklari oʻrtasidagi farqli jihatlarni koʻrsatadi, xulosalarini bayon etadi. Uningcha, lingvistik belgining ifodalovchi va ifodalanmishi oʻrtasida qisman motivatsiya munosabati bolsa ham, umuman olganda ular oʻrtasidagi munosabat erkindir.

Til va uning mohiyati, nutq va uning mohiyati, til va nutq birliklarining oʻziga xos tabiati tavsifidan ayonki, sistemaviy-struktur tilshunoslik lingvistik tadqiqot obyektni – til va nutq birliklarining tabiatini anʼanaviy tilshunoslikka nisbatan boshqacha tushunadi: sistemaviy-struktur tilshunoslikda til birliklari deb olinadigan elementlar bevosita kuzatishda berilmagan va faqat aqliy tahlil, intellektual usul bilan ochilishi mumkin.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Demak, sistemaviy-struktur va anʼanaviy tilshunoslikda til birliklarining tushunilishi, ularning tabiatini oʻrganuvchi tadqiqot usullari, metodologiyasi oʻzaro farq qiladi. Anʼanaviy tilshunoslikda til birliklari deb konkret, moddiy, bizning sezgi aʼzolarimizga taʼsir etadigan holatda berilgan xususiyliklar tushuniladi va bu tilshunoslik ushbu xususiyliklarni tasvirlash metodidan, tajriba, kuzatish, jonli mushohada usullaridan, yaʼni empirik tahlil metodologiyasidan foydalanadigan va shu metodologiya asosiga qurilgan tilshunoslikdir. Shuning uchun bugungi oʻzbek tilshunosligida yetakchi yoʻnalish, empirik, nominalistik yoʻnalishdir. Sistemaviy-struktur tilshunoslikda esa bevosita kuzatishda berilmagan, faqat nutqqa tayanilgan holda aqliy yoʻl bilan ochiladigan til birliklarining tabiati dialektik umumiylik, imkoniyat va mohiyat sifatida tushuniladi hamda bu tilshunoslik dialektik umumiylik, imkoniyat va mohiyatni ochish usullari-dialektik, radionalistik (aqliy) tahlil metodologiyasiga asoslanadi.





Tilning ijtimoiy mohiyati jamiyatda aloqa-aralashuv quroli bo'lishida ko'rinadi. Shunga ko'ra prof. S.Usmonov "Insonlar orasidagi munosabat uchun xizmat qiladigan narsa, albatta, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lishi lozim. Chunki bunday munosabat, aloqa kollektiv ichida – jamiyatda voqe bo'ladi"[4:103], deydi. Tilning material mohiyati haqida fikr yuritilganda, tilni belgilar sistemasi yoki semiotik sistema deb qarash hozirda tilshunos olimlar tomonidan qabul qilingan. Masalan, prof. V.M.Solnsev "Til tipik semiotik yoki belgilar sistemasidir..." desa, tilshunos B.V.Kosovskiy "til o'zining material mohiyatiga ko'ra belgilar sistemasini yoki semiotik sistemani hosil qiladi", deb alohida qayd etadi.

Til materialini S.Usmonov ikkiga bo'ladi:

1. "Psixik material. Bu – so'z, morfema va fonemalarning xotiradagi obrazi (qiyofasi).
2. Moddiy material. Bu – nutq yaratish chog'ida belgili tovush qobig'iga ega bo'lgan, aniq talaffuz qilinayotgan so'zlar, morfemalar va tovushlar"[4:95].

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Til "tashqi" jihatdan ham moddiy, ham psixik hodisa. Uning moddiyligi – tovush materiyasi bo'lsa, psixik hodisaligi xotirada saqlanish xususiyatidir. Tilning ijtimoiy vazifasi moddiylikda ko'rinadi. Tildagi moddiylik so'z, so'z birikmasi va morfemalarning tovush materiyasiga o'ralganligida namoyon bo'ladi. Xuddi shu xususiyat tildan ijtimoiy maqsadda foydalanish imkoniyatini beradi. Ma'lum bo'ldiki, tildan fikr almashuv – kommunikatsiya maqsadida foydalanish jarayoni nutqdir. Hozirgi vaqtda nutqning til materialini orqali aloqa qilish jarayoni ekanligi tajriba yo'li bilan ham isbotlangan. Masalan, psixolog V.A.Artemov kuyidagicha ta'kidlaydi: "Eksperimental – fonetik va eksperimental – psixologik tadqiqotlar nutqning til orqali aloqa qilish jarayoni ekanligiga bizni ishontirmoqda. Hozirda ko'pchilik ... psixologlar, metodist va tilshunoslar ushbu fikrga kelishgan". Demak, til nutq orqali, nutq esa til materialini orqali amalga oshadi. Til va nutq urtasidagi bog'liqlik, o'zaro aloqadorlik yana quyidagilardan ham ma'lum bo'ladi. Til nutq asosida tashkil topadi va nutq orqali reallashadi. Til bir vaqtning o'zida ham asos, ham nutq mahsuli. Til aloqa uchun material bersa, nutq shu materialdan fikr shakllantirishdir. Demak, til bizga nutq tushunarli bo'lishi uchun zarur bo'lsa, nutq esa tilning taraqqiyoti, yashashi, shakllanishi uchun zarur.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Алишер Навоий. Муҳокамату-л луғатайн, Тошкент: Академнашр, 2017. – 128 б.
2. Ahmad Yugnakiy. Hibat ul-haqoyiq, Toshkent: "Sharq", 2013. – 40 b.





3. Неъматов Ҳ., Бозоров О. Тил ва нутқ, – Тошкент: Уқитувчи, 1993. – 32 б.
4. Усмонов С. Умумий тилшунослик, Тошкент: “Ўқитувчи”, 1972. – 208 б.

